


"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi jamoasi

2 JARAYON

“Dekret puli” haqida



– **XUSUSIY korxonada ishlaydigan ayollar uchun ham “dekret puli” beriladimi?**
– Ha, beriladi.

– **Xususiy sektorda ishlovchi ayollarga “dekret puli” qanday tartibda beriladi?**

– Mehnatga layoqatsizlik varaqasi nafaqani tayinlash va to'lash uchun asos bo'ladi. Mehnatga layoqatsizlik varaqasi 5 ish kuni ichida hududiy ambulator-poliklinikaning yoki tug'uruxona muassasasining mas'ul xodimi tomonidan “Tibbiyot” axborot tizimiga kiritiladi. “Tibbiyot” AT tomonidan ma'lumotlar “Elektron hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali olingan ma'lumotlar asosida avtomatik tarzda tekshiriladi.

“Tibbiyot” AT tomonidan tekshirilgan ma'lumotlar avtomatik ravishda “Yagona reyestr” ATga yuboriladi. “Yagona reyestr” AT tomonidan to'lov ro'yxat (vedomost)lari bank plastik kartasi bo'yicha shakllantiriladi. Nafaqa oluvchining bank plastik kartasi bo'lmaganda, to'lov naqd pul ko'rinishida amalga oshiriladi. Demak, sizdan talab qilinadigan harakat – faqat hududiy ambulator-poliklinikaning yoki tug'uruxona muassasasining mas'ul xodimidan sizning mehnatga layoqatsizlik varaqasini “Tibbiyot” axborot tizimiga kiritishni so'rash.

– **“Dekret puli” olish uchun xususiy sektorda qancha vaqt ishlash kerak?**

– Budjet tashkilotlaridan tashqari barcha yuridik shaxslarda mehnat shartnomasiga asosan oxirgi 6 oy davomida uzluksiz ish stajiga ega bo'lish kerak.

– **“Dekret puli” miqdori qancha?**
– Xodimning farzandi tug'ilguniga qadar minimal iste'mol xarajatlarning 4 baravari miqdorida (hozirda 1 million 992 ming so'm) to'lanadi.

– **“Dekret puli” to'lanayotganda “tuman koefitsiyenti” qo'llaniladimi?**
– Yo'q, qo'llanilmaydi.

– **Bola parvarishidan qaytganiga ko'p bo'lmagan ayollar ham “dekret puli” olishi mumkinmi?**
– Albatta, olishi mumkin. Bunda ish staji sifatida uning bola parvarishiga qadar ishlagan ish staji hisobga olinadi.

– **“Dekret puli”ni qayerdan olish mumkin?**
– AT “Xalq banki” va uning bo'limlaridan olish mumkin.

Salamat TUREMURATOV,

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

AYNI paytda mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan keng ko'lamdagi konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar esa “Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat” degan ezgu g'oyaga asoslangan.

Yangi O'zbekistonning xalqparvar siyosati yuqoridagi g'oya zamirida shakllantirilayotgan o'ziga xos taraqqiyot istiqbollarini ochib berishda, shubhasiz, shunga mos ruhdagi huquqiy tizimni yaratishni taqozo etadi. Binobarin, joriy yilning 30-aprel kuni bo'lib o'tadigan referendumga taqdim etilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasida mazmun-mohiyatan o'z aksini topgan keng qamrovli islohotlar va yangilanishlar markazida, avvalambor, inson, uning qadr-qimmatini ulug'lash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilish asnosida vatanimiz obodligi va xalqimiz farovonligiga erishishdek ulug' maqsad joy olgan.

Ta'kidlash joizki, qonun loyihasida O'zbekistonni “ijtimoiy davlat” barpo etish tamoyiliga muvofiq, bir qator masalalar o'zining ijobiy yechimini topgan. Xususan, mamlakatni bir maromda rivojlantirish, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, ekologiya, atrof-muhit, yer, suv masalalariga jiddiy e'tibor qaratish, erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish, ochiq, pragmatik, o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan tashqi siyosatni izchil davom ettirish kabi taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari singdirilgan qator konstitutsiyaviy normalar jamlangan.

Mazkur Konstitutsiyaviy qonun loyihasining muhim jihati bu – unda jamiyatimiz taraqqiyotining har bir ustuvor yo'nalishi o'zining konstitutsiyaviy norma shaklidagi ifodasini topganligida namoyon bo'ladi. Zotan, izchillik bilan davom etayotgan islohotlar va yangilanishlar inson, xalq manfaatlariga qaratilganligi bois ularning natijadorligi xalq xohish-irodasini to'la-to'kis aks ettirgan qonunlarga bog'liq.

Inson huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinganida, ularning qabul qilingan davri nuqtayi nazaridan shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich qonunlarning mazmun-mohiyatida – shaxs erkinligi va fuqarolar tengligi, shaxs daxlsizligi, xususiy mulk, saylov huquqlariga oid masalalar o'rin egalagan bo'lsa, ikkinchi bosqichda insonning mehnat qilish huquqi, dam olish huquqi, ijtimoiy yordam olish huquqi asosiy mavzu bo'lib hisoblangan. Uchinchi bosqich esa inson huquqlari himoyasiga oid qonunlar yoxud inson huquqlari qonunchiligining “yangi avlod” davri deb nomlanadi. Ushbu bosqichning o'ziga xosligini qabul qilingan yoki qabul qilinayotgan qonun hujjatlari markazida insonlarning tinch yashash huquqi, sof va toza atrof-muhitga ega bo'lish huquqi, axborot olish huquqiga katta e'tibor qaratilganligi bilan izohlash o'rinni.



AVVAL – INSON, KEYIN – JAMIYAT VA DAVLAT

konstitutsiyaviy islohotlar ana shu ezgu g'oya asosida amalga oshirilmoqda

Ma'lumki, “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi” muqaddima va jami 30 ta moddadan tashkil topgan. Undagi barcha qoidalar Konstitutsiyaviy qonun loyihasida nazarda tutilgan inson huquqlariga taalluqli qoidalar bilan hamohang va mazmunan uyg'undur. Misol uchun, Deklaratsiyaning 3-moddasida qayd etilgan “Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir”, degan qoida yuqoridagi loyihaning 25-moddasi “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir” degan so'zlar bilan aks ettirilgan. Xuddi shuningdek, Deklaratsiya 5-moddasining “Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'lovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak”ligi to'g'risidagi me'yor yangi loyihaning 26-moddasidagi “Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas”, degan normaga mos. Yoki Deklaratsiyaning 9-moddasida hech kim asossiz qamallishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emasligi ta'kidlangan. Bu esa Konstitutsiyaviy qonun loyihasining 27-moddasida mazmunan to'ldirilgan aks etgan.

Ko'rinib turibdiki, milliy qonunchiligimizning asosi sifatida referendumga qo'yilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasida jamiyatimiz hayotida inson qadri belgilovchi bosh huquqiy mezon bo'lgan konstitutsiyaviy qoidalarga hozirgi reallik va xalqaro huquqiy standartlar hisobga olingan holda yondashilgan. Zero, jamiyatimizda har bir fuqaro va insonga nisbatan hurmat, uning qadr-qimmatini e'zozlash, rag'batlantirish va har tomonlama kafolatlash muhim ahamiyatga ega.

Rustam RO'ZIYEV

O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori

SURXONDARYO



Hamshiralar adliyadan yordam so'radi

BOYSUN tumanidagi 2-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti hamshirasi S. Toshmatova va boshqalarning tumandagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uzluksiz ravishda 5, 10 va 20 yildan ortiq muddatda hamshira vazifasida faoliyat yuritib kelayotgan bo'lsa-da, tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2021-2022-yillar davomida ularga oylik ustama to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib yo'llagan murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi.

Aniqlanishicha, tuman MTB tomonidan 2021-2022-yillar uchun tumandagi turli DMTT-larida hamshira vazifasida uzoq yillar davomida uzluksiz ishlab kelayotgan S. Toshmatova, N. Karimova, Sh. Ergasheva, L. Hamroyeva, M. Ab-

durahimova, G. Suyunova hamda N. Karimovaga larga tarif stavkasining tegishli foizlari miqdorida ustama to'lanmagan.

Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrda qarorining 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi davlat muassasalari tibbiyot va farmatsevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlari to'g'risida"gi Nizomning 25-bandida vrachlarga, o'rta va kichik tibbiyot xodimlariga, shuningdek, sog'liqni saqlash barcha muassasalari farmatsevtika xodimlariga uzluksiz ish staji 5 yildan 10 yilgacha bo'lganda – tarif stavkasining 5 foizi, uzluksiz ish staji 10 yildan 15 yilgacha bo'lganda – tarif stavkasining 10 foizi, uzluksiz ish staji 15 yildan 20 yilgacha bo'lganda – tarif stavkasining 15 foizi, oliy ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot hamshiralari uchun esa tarif stavkasining 20 foizi, uzluksiz ish staji 20 yildan ortiq bo'lganda – tarif stavkasining 20 foizi miqdorida, oliy ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot hamshiralari uchun esa tarif stavkasining 30 foizi miqdorida ustama to'lanishi ko'rsatib o'tilgan.

Shunga ko'ra, tuman adliya bo'limi tomonidan tuman MTBg kiritilgan tegishli taqdimnomaga asosan tumandagi 2, 3, 4, 8, 10 va 11-sonli DMTT-lari hamshiralari uchun uzluksiz ish stajlari uchun jami 26 million 29 ming 908 so'm miqdoridagi ustama ish haqlariga qo'shib to'lab berilishi ta'minlandi.

Nodir MAMADIYEV,

Boysun tuman adliya bo'limi boshlig'i

SIRDARYO

NIGORA PIRMANOVA 2018-yildan buyon Guliston tuman maktabgacha ta'lim bo'limida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirishga mas'ul (AKT) mutaxassisi sifatida faoliyat yuritadi. Biroq unga to'lanishi lozim bo'lgan ustama puli to'lab berilmagan. N. Pirmanovaning ushbu to'lovni undirishda amaliy yordam so'rab qilgan murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganildi.



TO'RT YIL CHO'ZILGAN

ustama undirildi

O'rganish jarayonida maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan AKT bo'yicha mas'ul xodim N. Pirmanovaga 2018-2022-yillar davomida to'lanishi lozim bo'lgan 50 million 185 ming 818 so'm miqdorida qo'shimcha oylik maoshi to'lanmagani o'z tasdig'ini topdi.

Vaholanki, Prezidentning "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan davlat organlari va boshqa budjet tashkilotlarining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirishga mas'ul bo'lgan xodimlariga beriladigan har oylik ustama miqdori davlat budjetidan, davlat budjetidan ajratilmagan bo'lsa, ushbu tashkilotning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan xodim lavozim maoshidan 100 foizdan kam bo'lmagan miqdorda to'lanishi belgilab qo'yilgan.

Shunga ko'ra, tuman adliya bo'limi tomonidan N. Pirmanova manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Guliston tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qarori bilan tuman maktabgacha ta'lim bo'limi hisobidan N. Pirmanova foydasiga 50 million 185 ming 818 so'm ish haqi va ustama puli undirilishi belgilandi.

Shavkat ISKANOV,

Guliston tuman adliya bo'limi boshlig'i

ANDIJON

KUTUBXONACHILAR NEDAN NOROZI?

KUTUBXONACHILIK ham sharaflil, ham mashaqqatli kasb. Chunki bu kasb egalari doimo kitob mutolaasi va muomalasi bilan band bo'ladi. Eski kitoblardan chiqadigan changlar yoki yangi kitoblardan chiqadigan turli kimyoviy moddalarning hidlari kishini turli allergik kasalliklarga duchor qilishi mumkin.

Hukumatimiz tomonidan kutubxonachilarni moddiy rag'batlantirish maqsadida ularning oylik ish haqlariga qo'shimcha to'lov to'lanishi belgilab qo'yilgan.

Paxtaobod tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi maktablarda faoliyat olib boruvchi 49 nafar kutubxonachi qo'shimcha to'lov to'lanmaganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan. Murojaat adliya bo'limi tomonidan o'rganilib, aniqlangan qonunbuzilishini bartaraf etish yuzasidan tuman xalq ta'limi bo'limi rahbari nomiga taqdimnoma kiritildi. Taqdimnoma ijrosi ta'minlanib, kutubxonachilarga 120 million 252 ming 272 so'm to'lab berilishi ta'minlandi.

Saydullo ABDURAHMONOV,

Paxtaobod tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

TOSHKENT

32 YILLIK ISH STAJI
"KUYMAYDIGAN"
BO'LDI

FUQARO I.I. Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Shayxontohur tuman bo'limi tomonidan 1982-yildan 2017-yilgacha ayrim ishlagan ish davrlarini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etmagani uchun pensiya tayinlashda hisobga olinmaganidan norozi bo'lib, Shayxontohur tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

Mehnat kodeksining 81-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrda "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 59-bandiga asosan mehnat daftarchasi ish stajini hisoblaydigan asosiy hujjat sanaladi.

Prezidentning 2021-yil 3-fevraldagi 6155-sonli qarorining 10-bandiga ko'ra, pensiya tayinlashda shaxsning ish haqi


va mehnat staji to'g'risidagi ma'lumotlarning elektron bazasi yuritilmagan davr – 2005-yildan avvalgi yillar uchun ish staji shaxsning mehnat daftarchasidagi yozuvlar asosida tasdiqlovchi hujjat talab qilinmasdan hisoblanishi lozimligi belgilab qo'yilgan.

Shunga ko'ra, fuqaro I.I. manfaatida Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga pensiya bo'limining pensiya tayinlash to'g'risidagi qarorini haqiqiy emas, deb topish va fuqaroning 1982-yildan 2017-yilgacha ishlagan davrini ish stajiga qo'shib hisoblash yuzasidan shikoyat arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan, pensiya bo'limining tegishli qarori haqiqiy emas, deb topildi va fuqaroning o'ttiz ikki yildan ortiq ishlagan davrini ish stajiga qo'shib hisoblash majburiyati yuklatildi.


Doniyor ABDUMALIKOV,

Shayxontohur tuman adliya bo'limi yetakchi maslahatchisi

4 "MADAD" JAVOB BERADI



Savollarga "Madad" NNT
Koson tuman huquqiy maslahat
byurosi bosh mutaxassisi
Oybek MURODOV
javob berdi



ELEKTR TARMOQ'IGA ULANISH UCHUN KIMGA MUROJAAT QILAY?

– Farzandimiz uchun yangi uy qurdik. Uyni elektr tarmog'iga ulashimiz kerak. Elektr tarmoqlariga ulanishning qonuniy tartibi haqida ma'lumot bersangiz?

– Elektr tarmoqlariga ulanish Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi "Yuridik va jismoniy shaxslarni elektr tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan amalga oshiriladi. Yangi uyingizni elektr tarmog'iga ulash uchun Davlat xizmatlari markazi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali texnik shart olish bo'yicha murojaat qilishingiz lozim.



KIMLARNING PENSIYASI OSHIRILDI?

– 2023-yildan kimlarning pensiyasi oshirildi?

– 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

strategiyasi to'g'risida"gi Prezident farmonida 2023-yil 1-yanvardan boshlab pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdori o'n baravardan o'n ikki baravargacha oshirilishi ko'rsatilgan. Hozirgi kunda o'r-tacha oylik ish haqi miqdori o'n baravardan, ya'ni 3 million 240 ming so'mdan yuqori bo'lgan pensionerlarning pensiyasi 2023-yil 1-yanvardan pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori o'n ikki baravari, ya'ni 3 million 888 ming so'm bo'lganligi sababli ularning pensiya miqdori qayta hisoblanadi.



ISHLOVCHI NOGIRONLARNING PENSIYASI QANDAY HISOBLANADI?

– Nogironligi bo'lgan, hozirgi kunda ishlovchi shaxslarning pensiya miqdori qanday tartibda hisoblanadi. Ularning pensiyasi oshirildi, deb eshitdim. Shu gap to'g'rimi?

– O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 26-oktabrdagi qonuniga ko'ra, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 49-moddasiga o'zgartirish kiritildi. Unga ko'ra, I va II guruh nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyin kamida 1 yil ish stajiga ega bo'lsa, fuqaroning arizasi asosida ish staji va ish haqi ino-

batga olingan holda pensiya har ikki yilda bir marotaba qayta hisoblab chiqiladi. Bunda pensiyani qayta hisoblash fuqaro pensiya miqdorini qayta hisoblash uchun murojaat qilgan sanadagi ushbu qonunning 17-moddasida ko'rsatilgan yoshga nisbatan talab qilingan ish stajidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.



NIKOH TUZISH TARTIBI QANDAY?

– Nikoh tuzishning huquqiy jihatdan tartibi qanday? Shu haqda ma'lumot bersangiz?

– Oila kodeksining 13-moddasi-ga ko'ra, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas. Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Uzrli sabablar bo'lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin. Alohida hollar (homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar)da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin. Nikoh tuzish fuqarolik holati dalolatnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun

belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi nikohni ro'yxatga olishni rad etganda, shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo'ysunishiga ko'ra yuqori turuvchi organga murojaat qilinishi mumkin.



MULKKA ZARAR KELTIRGANGA QANDAY JAZO BOR?

– O'zganing mulkiga zarar yetkazgan shaxsga nisbatan qanday javobgarlik bor?

– Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 612-moddasiga ko'ra, o'zganing mulkini qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish, oz miqdorni tashkil etsa, – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. O'zganing mulkini qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish ko'p bo'lmagan miqdorni tashkil etsa, – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi. O' miqdor deganda bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lgan miqdor, ko'p bo'lmagan miqdor deganda esa, bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo'lgan doiradagi miqdor tushuniladi.

NOTARIAL TASDIQLANGAN VASIYATNOMALARGA TENGLASHTIRILGAN VASIYATNOMALAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI Fuqarolik kodeksining 1123-moddasiga asosan quyidagi turdagi vasiyatnomalar notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtiriladi:

- ✓ kasalxonalar, gospitallar, boshqa statsionar davolash muassasalari-da davolanayotgan yoki keksalar va nogironlar uchun internat uylarida yashab turgan fuqarolarning ana shu kasalxonalar, gospitallar va muassasalarning bosh vrachlari, ularning o'rinbosarlari yoki navbatchi vrachlari, gospitallarning boshliqlari, internat uylarining direktorlari yoki bosh vrachlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalar;
- ✓ fuqarolar O'zbekiston bayrog'i ostidagi kemalarda suzib yurganda kema kapitanlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalar;
- ✓ qidiruv ekspeditsiyalaridagi fuqarolarning ana shu ekspeditsiyalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;
- ✓ harbiy xizmatchilarning komandirlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;
- ✓ ozodlikdan mahrum etish joylarida yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;
- ✓ notarius bo'lmagan hududda notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega shaxslar tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalar.

Bahrullo ALIMOV,

Oltinsoy tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

O'ZBEKISTON Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining MDH mamlakatlari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan nikohni qonuniy qayd etish hamda chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohni qayd etish umumiy asoslarda amalga oshiriladi.



Chet el fuqarosi va O'zbekiston fuqarosi nikohini qayd qilish tartibi qanday?

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi nikohni qayd etish agar chet el fuqarosining yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning O'zbekistonda bo'lish viza-si nikoh tuziladigan kunda haqiqiy bo'lsagina amalga oshiriladi.

Bunda chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning nikohga kirish haqidagi arizasiga uning shax-sini tasdiqlovchi hujjat nusxasi ham-

da chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning nikohda tur-masligi haqidagi belgilangan tartib-da legalizatsiya qilingan yoki apos-til qo'yilgan hujjat (davlat tilidagi tarjimai bilan birga) ilova qilinishi lozim.

FHDYo organi tomonidan nikoh qayd etilgandan keyin O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan nikohga kirgan shaxs fuqarosi bo'lgan xorijiy davlatga nikoh tuzilganligi to'g'risi-dagi xabarnoma belgilangan tartib-da yuboriladi.

Chet elda doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi-ni nikohini qayd etish o'sha dav-lat qonunchiligiga asosan uning vakolatli organlari tomonidan yoki O'zbekiston Respublikasining konsul-lik muassasalarida ushbu qoidalar-ga asosan amalga oshiriladi.

Boshqa davlatda yashovchi O'z-bekiston Respublikasining fuqarosi bilan mazkur davlatning tegishli or-ganlarida nikohni qayd ettirmoqchi bo'lgan o'sha davlat fuqarosining iltimosiga ko'ra, konsul nikohni qayd etuvchi o'sha davlat organlariga taqdim etish uchun ariza beruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ni-kohda turmasligi haqida ma'lumot-noma berishi mumkin.

Bunday ma'lumotnomalar konsul-lik muassasalarida mavjud bo'lgan ma'lumotnomalar asosida beriladi, agar konsullik muassasasida nikoh-lanuvchi shaxsning oilaviy ahvo-li to'g'risida ma'lumotlar bo'lmasa, konsul bu ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali Adliya vazirligidan oladi.

Zulfizar SAYFIYEVA,

G'ijduvon tuman FHDYo bo'limi
1-toifali inspektori



SOTILGAN TILLA TAQINCHOQLAR QAYTARIB OLINMAYDI

- TILLA taqinchoqlar sotuvchilar tomonidan qaytarib olinmaydi yoki almashtirilmaydi, deb eshitdim, shu to'g'rimi?

- To'g'ri, qonunchilikka ko'ra, tilla taqinchoqlar sotuvchi tomonidan qaytarib olinmaydi. Jumladan, qimmatbaho toshlardan foydalangan holda qimmatbaho metallardan tayyorlangan, yarim qimmatbaho va sintetik toshlardan foydalangan holda qimmatbaho metallardan tayyorlangan buyumlar, silliqlangan qimmatbaho toshlar qaytarib olinmasligi ko'rsatilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalariga asosan, quyidagi tovarlar ham qaytarib olinmaydi va boshqasiga almashtirib berilmaydi:



tikuvchilik va
trikotaj buyumlari,
ya'ni tikuvchilik
buyumlari va
trikotaj ichki
kiyimlar, paypoq va
qo'lqop buyumlari



qurilish va pardoqlash
materiallari, ya'ni
linoleum, plyonka,
gilam qoplamalar
hamda metrlab
sotiladigan boshqa
tovarlar



shaxsiy gigiyena
buyumlari, ya'ni tish
cho'tkalari, taroqlar, soch
to'g'hog'ichlar, soch
bigudilari, ulama sochlar,
shinonlar va boshqa shu
kabi tovarlar



kabel
mahsulotlari,
ya'ni simlar,
shnurlar, kabellar



maishiy kimyo
tovarlari,
pestitsidlar va
agroximikatslar



hayvonlar va
o'simliklar



attorlik-pardoz
tovarlari



uy sharoitlarida kasalliklarni profilaktika qilish va davolash uchun tovarlar, ya'ni metall, rezina, to'qimachilik va boshqa materiallardan tayyorlangan sanitariya va gigiyena buyumlari, tibbiy buyumlar, priborlar va apparatlar, og'iz bo'shlig'i gigiyenasi vositalari, ko'zoynak linzalari, bolalarni parvarish qilish buyumlari, dori vositalari



polimer materiallardan tayyorlangan, oziq-ovqat materiallari bilan bog'liq bo'lgan, shu jumladan bir marta foydalaniladigan buyum va materiallar, ya'ni oshxona idish-tovoqlari va anjomlari, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash va tashish uchun idishlar va o'rov materiallari



to'qimachilik tovarlari, ya'ni ip-gazlama, zig'ir tolali, ipak, jun va sintetik gazlamalar, gazlama tusidagi noto'qima materiallardan tayyorlangan tovarlar - lentalar, jiyaklar, to'rlar va boshqalar.

Savolga "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi
Sherzod ABDULLAYEV javob berdi

6 KO'ZGU

KEYINGI yillarda davlat va fuqarolar o'rtasida hamkorlik qilishning yangi tizimi shakllantirildi. Davlat organlarida murojaatlarni ko'rib chiqishning zamonaviy yondashuvlarini joriy etish va joylarda muammolar hal etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni o'rnatish hamda davlat xizmatini ilg'or xalqaro standartlar asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aholi murojaatlari bilan ishlash, ularni o'rganish, o'z vaqtida hal qilish maqsadida tizimli ishlar yo'lga qo'yilmoqda.

Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Prezidentning Virtual va Xalq qabulxonalari orqali Samarqand shahar aholisidan shu yilning yanvar-fevral oylarida jami 3 ming 386 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 foizga ko'paygan. Ularning 1 ming 174 tasi, ya'ni 37 foizi ijobiy hal etildi. Xususan, Samarqand shahrining "Do'stlik" mahallasida yashovchi fuqaro O. Jo'rayevaning ichimlik suvi quvurini tortish to'g'risidagi



Elektr tarmoqlari korxonasi mas'ullari ogohlantirildi

murojaati shahar "Suv ta'minoti" korxonasi tomonidan ijobiy hal etilib, ichimlik suvi quvurlari tortib berildi.

"Maysazor" mahallasida yashovchi S. Mo'minovaning sog'lig'ini tiklash uchun order olish to'g'risidagi murojaati ham hal qilinib, oilaviy poliklinikasi tomonidan amaliy yordam ko'rsatildi. "Chashma" mahallasida yashovchi fuqaro B. Mo'minovaga esa nogironlik aravachasi berildi.

Murojaatlar tashkilotlar kesimida tahlil qilinganida ularning aksariyati qishki mav-

sumda kuzatilgan anomal sovuq sababli hududlardagi elektr ta'minoti va tabiiy gazning aholiga uzluksiz ta'minlab berilishida uchrayotgan muammolar bilan bog'liqligi ma'lum bo'ldi. Xususan, shahar elektr tarmoqlari korxonasiga 400 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, murojaatlar 2022-yilning shu davriga nisbatan 226 taga ko'paygan. Shahar gaz ta'minoti korxonasiga esa 287 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, aholining bu boradagi murojaatlari 2022-yilga nisbatan 172 taga ko'paygan. Majburiy ijro byurosi shahar bo'limiga 182 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ular o'tgan yilgiga nisbatan 82 taga ko'pdir.

Shuningdek, bevosita Xalq

qabulxonasiga joriy yilning 2 oyi davomida yuridik va jismoniy shaxslardan jami 86 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ular o'tgan yilgiga nisbatan 9 taga kamaygan. Murojaatlar tegishliligi bo'yicha hududlardagi tashkilotlarga yo'naltirildi. Ularning 86 foizi qanoatlantirildi.

Joriy yilning o'tgan ikki oyi davomida 12 nafar kam ta'minlangan, nogironligi bor fuqarolarning davolanishi uchun moddiy yordam ajratildi. 47 nafar fuqaroga 1 million 200 ming so'mdan bir martalik moddiy yordam ajratilishida amaliy yordam ko'rsatildi. 28 nafar fuqaroga 11 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari berildi. "Yoshlar daf-tari"da ro'yxatda turgan 2 nafar yoshlarning oliy o'quv yurtlariga kontrakt to'lovi to'lab berildi. 2 nafar yoshlarga bandligini ta'minlash maqsadida zarur asbobot-uskunalar olib berildi, 5 nafar fuqaro ishga joylashtirildi.

2023-yil yanvar-fevral oylarida eng ko'p kelib tushgan murojaatlar bo'yicha shahar elektr tarmoqlari korxonasiga taqdimnoma kiritilib, korxananing murojaatlar bilan ishlash bo'yicha mas'ul xodimlariga ogohlantirish berildi. Shuningdek, shahar gaz ta'minoti korxonasi mas'ul xodimlari tomonidan aholi murojaatlari bilan ishlashda yo'l qo'ygan kamchiliklari yuzasidan shahar prokuraturasiga

hamda shahardagi korxona va tashkilotlarda Virtual qabulxonalar orqali kelib tushgan murojaatlarni o'rganish jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar bo'yicha shahar hokimiga taqdimnomalar kiritildi.


Aholini o'ylantirayotgan muammolarni o'rganish va joyida bartaraf etish maqsadida Xalq deputatlari shahar Kengashi bilan hamkorlikda eng ko'p murojaatlar kelib tushayotgan mahalla fuqarolar yig'inlarida sayyor qabullar o'tkazilmoqda. Murojaatlar bilan ishlash bo'yicha mas'ul xodimlarning bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirish maqsadida o'quv seminari tashkil qilindi. Mas'ul tashkilotlar ishtirokida murojaatlarni ijobiy hal etish choralarini ko'rilmoqda.

Xalq qabulxonasida "Oqqo'rg'on tajribasi" asosidagi ishlarni Samarqand shahridagi barcha mahallalarda boshlab, aholini qiy-nab kelayotgan muammolarni o'rganish va hal etish borasida sektorlar va mas'ul korxona, tashkilot rahbarlari ishtirokida yig'ilish o'tkazilib, shahar shtabi shakllantirildi. Shahardagi 4 ta sektorga shtab ishchi guruhi a'zolari birlashtirildi.

Ilhom NEGMATOV,

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining Samarqand
shahridagi Xalq qabulxonasini
mudiri

SO'RAGAN EDINGIZ



- HOZIR Rossiyadaman. Xotinim ota-onasini ketib qolib, aliment undirish bo'yicha ariza beribdi. Aliment majburiyati yuzaga kelsa, Rossiyadan uyga qaytib borganimdan keyin O'zbekistondan chiqib keta olmay qolamanmi? Shu masalaning huquqiy yechimini tushuntirib bersangiz?

Garov shartnomasi tuzishingiz kerak

- Aliment undirish haqida sud buyrug'ining chiqarilishi qarzdorni chetga chiqishiga to'g'ridan-to'g'ri taqiq belgilamaydi. Buning uchun davlat ijrochisining qarzdor jismoniy shaxsni O'zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklash to'g'risidagi qarori chiqarilishi kerak. Chet elga chiqishni cheklash ijro hujjati belgilangan muddatda ijro etilmaganda qo'llaniladi.

Qarzdor jismoniy shaxsning O'zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklash "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish

to'g'risida"gi qonunning 421-moddasiga ko'ra amalga oshiriladi. Sud hujjati asosida berilgan ijro hujjatidagi yoki ijro hujjati bo'lgan sud hujjatidagi talablari belgilangan muddatda qarzdor jismoniy shaxs tomonidan uzrsiz sabablarga ko'ra ijro etilmaganda, davlat ijrochisi undiruvchining arizasi bo'yicha yoki o'z tashabbusi bilan qarzdor jismoniy shaxsning O'zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklash to'g'risida qaror chiqarishga haqli, bundan jarima tariqasidagi jinoiy jazo bo'yicha ijro ishini yuritish hollari mustasno.

Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 12-noyabrda 3196-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Sud hujjati asosida berilgan ijro hujjatini yoki ijro hujjati bo'lgan sud hujjatini uzrsiz sabablarga ko'ra ijro etmagan qarzdor jismoniy shaxsning O'zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklashni ta'minlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarining hamkorligi tartibi to'g'risida"gi nizomning 2-bandiga ko'ra, davlat ijrochisi ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risidagi qarorida qarzdor tomonidan ijro hujjatidagi talablarni ixtiyoriy ravishda bajarish uchun belgilangan muddatda uzrsiz sabablarga ko'ra ijro etilmagan taqdirda, unga nisbatan majburiy ijro harakatlari qo'llanilishi, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasidan chiqishi vaqtincha cheklanishi belgilangan.

Qarzdorning chiqishini vaqtincha cheklash ijro hujjati talablari qarzdor tomonidan uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan muddatda ijro etilmagan


hollarda qo'llaniladi. Ya'ni, siz alimentni belgilangan muddatda to'lab bor-sangiz, sizga nisbatan respublikadan chiqishni vaqtincha cheklash qo'llanilmaydi. Buning uchun qarindoshlaringiz zudlik bilan tegishli MIB bo'limiga borib, ijro ishi bilan shug'ullanayotgan davlat ijrochisini topib, alimentni to'lashi kerak.

Agar ijro hujjati o'z vaqtida bajarilgan bo'lsa ham, davlat ijrochisi respublikadan chiqishni vaqtincha cheklagan bo'lsa, 10 kun muddat ichida qarorni haqiqiy emas deb topishni so'rab ma'muriy sudga murojaat qilish mumkin.

Agar sizning aybingiz bilan aliment o'z vaqtida to'lanmasdan, sizga nisbatan cheklov o'rnatilgan bo'lsa, cheklovni olib tashlashingiz uchun alimentni oldindan to'lashingiz yoki aliment to'lash majburiyatini ta'minlash uchun garov shartnomasi tuzishingiz kerak.

Savolga Qorovulbozor tuman FHDYo bo'limi 1-tafoli inspektori Gulmira AKMURODOVA javob berdi

O'ZGANING haqqi hech qachon buyurmagan. Hayotning bu oddiy haqiqatini anglamagan odamlar har doim pand yegan, pushaymon qilgan. A. Hamroyev va S. Jo'rayev (ism-shariflar o'zgartirilgan)lar ham ana shunday so'nggi pushaymon o'ziga dushman ekanligini kech tushunganlardan. Ikkala "qahramon" ham muqaddam sudlangan.



Nihoyasiga yetmagan "echki operatsiyasi"

Gap shundaki, 2022-yilning 10-iyun kuni A. Hamroyev va S. Jo'rayevlar o'zaro telefonlashib, Nurota tumanini, "Chuya" qishlog'i hududida joylashgan yo'l chetida qarovsiz yurgan M. Boliyevga tegishli 1 bosh bahosi 1 million 200 ming so'mlik mayda shoxli chorva moli echkisini ushlab, Sar-

dor boshqaruvdagi "Jiguli vaz-2107" rusumli avtomashina yukxonasiga yuklab, voqea joyidan yashirinishadi. "Ov"imiz baroridan keldi, deb o'ylagan shovvovlar o'zlarining jinoiy harakatlari davom ettirib, xuddi shu kuni Xatirchi tumani, "Sadring gul" chorva fermer xo'jaligiga qarashli qir-adirlarda qarovsiz o'tlab yurgan O. Umarovga tegishli 1 bosh mayda shoxli chorva molini, ya'ni echkini ham avtomashina yukxonasiga yuklab, yana jinoyat sodir etadi.

"Buzoqning yugurgani somonxonagacha..." degan maqol bejizga aytilmagan. Echki o'g'irlarining yugurgani ham uzoqqa bormadi.

Nafs bandalari adirda echkini o'g'irlash uchun quvib yurganlarida yo'ldan motosiklda o'tayotgan ikki shaxs ularning yoniga kelib, avtomashina yukxonasini ochishni so'raydi. Yukxonani ochganlarida ikki bosh echki borligini ko'rib, bir bosh echki O. Umarovga tegishli ekanligini tanib, tezda IIB xodimlariga qo'ng'iroq qilib chaqirishadi. Va bu "operatsiya" shu taxlitda noxush yakun topadi. O'g'irlangan echkilar o'z egalari qaytariladi. Ishtahas karnay yigitlar esa, panjara ortiga yuboriladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Xatirchi tuman sudi tomonidan A. Hamroyevga 2 yil 2 oy, S. Jo'rayevga esa 2 yil 1 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Habibullo TO'XTAYEV,
jinoyat ishlari bo'yicha
Xatirchi tuman sudi sudyasi,
Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

ABROR (ismlar o'zgartirilgan) asli jizzaxlik, 2-bosqich talabasi. Mushtlashuvda jabrlangan Sardor unga begona emas, yigitning kursdoshi. Kursdosh yigitlar Talabalar shaharchasidagi Moliya institutining yotoqxonasi oldida suhbatlashib turishgandi. Oddiygina gaplardan boshlangan suhbat janjalga aylanib, mushtlashishgacha yetdi.

JAHL CHIQSA, AQL KETADI DEGANI SHU-DA!



Jahl chiqsa, aql ketadi, degan gap bor. O'sha kuni oliygoh talabalari bo'lgan ikki yigit ham jahlini jiloviolmay qolishdi. Daxanaki jang tortishuvga, keyin esa janjallashuvga aylanib, ish sudgacha bordi.

Sud-tibbiy ekspertizasining xulosasiga ko'ra, Sardor o'rtacha og'ir darajadagi tan jarohati olgani aniqlandi.

Jabrlanuvchi sud majlisida yarashuv to'g'risidagi arizasini tasdiqlab, hozirda sog'lig'i yaxshi ekanligi, kursdoshi Abrorga nisbatan hech qanday da'vosi yo'qligini aytib, jinoyat ishini tugatishni so'radi.

Abror esa sud majlisida aybiga to'liq iqror bo'ldi. Qilmishidan pushaymonligi, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to'liq qoplagani, jabrlanuvchi bilan yarashib olishganini aytdi.

Sud jabrlanuvchining yarashuv to'g'risidagi arizasini jinoyat ishi hujjatlari bilan o'rganib, Olmazor tuman prokurori yordamchisining jinoyat ishini yarashganlik munosabati bilan tugatish haqidagi fikrini eshitib, arizani qanoatlantirishni, Abrorga nisbatan yuritilgan jinoyat ishini yarashganlik munosabati bilan tugatishni lozim deb topdi.

Mirziyod ABIDOV,
jinoyat ishlari bo'yicha Olmazor tuman sudi sudyasi

SOXTA MXX XODIMI TOVLAMACHILIK BILAN QO'LGA TUSHDI

O'ZBEKISTON tumanida yashovchi Faxriddin Abdusalomov (ism-shariflari o'zgartirilgan) 2015-yilning avgust oyida Rossiya Federatsiyasining Tyumen shahrida obodonlashtirish xizmatida ishlab yurgan vaqtida, ko'chadan yelim xaltaga o'ralgan, noma'lum shaxsga tegishli 2 million 500 ming rubl va rasmiy hujjatlarni topib oladi.

Ammo yurtdoshimiz topilmani tegishli idoraga topshirmaydi. Aksincha, hech kimga indamay, kiyim-kechaklari orasiga yashirib qo'yadi. Mamlakatimizga qaytib kelgach esa pullarni shaxsiy ehtiyojlari uchun ishlatib yuboradi. Hujjatlarni esa chiqindixonaga uloqtiradi.

Buni qarangi, poytaxtimizning Sergeli tumanida istiqomat qiluvchi, muqaddam fribgarlik va pora berishga suiqasd qilish jinoyatlarini sodir etgani bois sudlangan Sherali 2015-yilning dekabr oyida tanish-bilishlaridan Faxriddinning Rossiya-da pul topib olgani haqida eshitadi. Eshitadi-yu, halovati yo'qoladi. Ya'ni, Sheralida o'sha pullarni qo'lga kiritish niyati paydo bo'ladi. U og'aynisi Saydulloni ham bu ishga qiziqitirib, o'ziga sherk qiladi.

Shundan so'ng - 2016-yil 5-yanvar kuni ikkovlon Sherali Buvayevning "Lasetti" avtomashinasida Tosh-

kentdan vodiy tomon yo'lga chiqishadi. Aniqrog'i, soat 16:00ga yaqin O'zbekiston tumanining Yaypan shaharchasiga yetib borib, F. Abdusalomovning yashash xonadonini surishtirib topishadi.

- Biz Toshkentdan keldik, respublika milliy xavfsizlik xizmatidannmiz, - deya xizmat guvohnomalarini ko'rsatib, xonadon sohibiga o'zlarini tanishtiradi.

Ular shunday deb Faxriddindan mashinaga o'tirishni talab qilishadi. Biroq F. Abdusalomov dabdurustdan berilgan bu buyruqqa bo'ysunmaydi. Shunda Saydullo uni majburlab mashinaga o'tirgizadi. Keyin Sherali mashinani tumanning Qulibek qishlog'i tomonga haydaydi. Qishloqning ovloq joyiga borganda esa Faxriddindan Tyumen shahrida 2 million 500 ming rubl emas, balki 6 million 500 ming Rossiya rubli (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2016-yil 5-yanvar holatiga bel-

gilangan kurs bo'yicha 251 million 30 ming so'm) va hujjatlarni topib olganini aytib, o'sha topilmalarni berishni talab qiladi. Aksincha, poytaxtga olib ketib, tergov hibsxonasida qiynoqqa solishlari hamda 15. yilga qamatib yuborishini aytishadi. Shu bilan birga, bu turdagi jinoyatlarga nisbatan amnistiya akti ham qo'llanilmasligini alohida ta'kidlab o'tishadi.

Bundan tashqari, "mehmon"lar mezbanning Tyumen shahrida yashovchi opasi L. G'oybnazarovani bezorilar orqali o'ldirib yuborish bilan ham qo'rqitishadi. Qolaversa, Sherali undan fuqarolik pasportini berishini talab qiladi.

- Pasportim ota-onamning uyida. O'sha yerga boraylik, olib beraman, - deydi F. Abdusalomov.

Shu bois, Sherali bilan Saydullo Faxriddinni tumanning G'aniobod qishlog'iga - otasi Bahodir Abdusalomovnikiga olib borishadi. So'ng uning ota-onasiga ham yuqoridagi tahdidomuz gaplarni aytishadi. Bahodir aka soxta MXX xodimlarining gaplarini eshitib, biroz tahlikaga tushadi. Lekin ularga ishonmaydi. "Men tanish-bilishlardan surishtirib, pul topib

kelaman" deya bahona qilgan holda ko'chaga chiqib ketadi. Ammo u tuman ichki ishlar bo'limiga borib, tezkor xodimlarni xonadoniga boshlab keladi. Oqibatda xodimlar Sherali va Saydulloni hamda ota-bola Abdusalomovlarni IIBga olib ketishadi.

Shundan keyin mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Biroq dastlabki surishtiruv jarayonida Sherali tergovdan yashirinish maqsadida Rossiya Federatsiyasiga jo'nab qoladi. Shu bois, unga nisbatan qidiruv e'lon qilinadi. Saydullo esa jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudining 2017-yil 28-noyabrdagi hukmiga muvofiq, Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan aybdor deb topilib, qonuniy jazoga mahkum etiladi.

Oradan 6 yil o'tib, Sherali qo'lga olinadi. Yaqinda jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi uning ishini ko'rib chiqadi. Pirovardida qidiruvdagi talonchi Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan aybdor deb topilib, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga mahkum etiladi.

Po'latjon MAMATUSMONOV,
jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi sudyasi

8 HOLAT



Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrda qabul qilingan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish tartiblarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan 2023-yil 1-yanvardan Toshkent shahrida tug'ilganlikni tibbiyot muassasalari orqali fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlarida qayd etish tartibi joriy etildi. Bu esa aholiga yanada qulay bo'lib, ortiqcha ovoragarchilik, qo'shimcha vaqt va sarf-xarajatlarga barham bermoqda.

Yangi tartibga ko'ra, fuqarolar istalgan vaqtda FHDYo bo'limlariga murojaat qilib, tug'ilganlik haqidagi gerbli guvohnomani belgilangan miqdorda gerb yig'imi to'langan holda olishlari ham mumkin. Nikohni qayd etish uchun ariza taqdim etilganda esa taraflarning tegishli MFY xabardor qilinishi uchun FHDYo tomonidan qog'oz shakldagi xabarnoma berilmaydi. Natijada nikohlanuvchi shaxslar yashash joyidagi MFY binosiga bormaydi.

Prezidentimizning 2023-yil 28-fevralda imzolangan "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida FHDYo sohasida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish ham belgilangan. Xususan, tibbiyot muassasalari nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rik natijalarini "FHDYoning yagona elektron arxivi" axborot tizimiga real vaqt rejimida joylashtiradi. FHDYoga oid qaror qabul qilgan sud ayni hujjatni kuchga kirgan kuni "FHDYoning ya-

QOG'OZ HUJJATLAR AYLANMASI,

ASOSSIZ MOLIYAVIY XARAJATLARGA BARHAM BERADI



gona elektron arxivi" axborot tizimiga elektron tizim orqali yuboradi. Fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlariga o'zgar-tirishlar kiritilganda, "FHDYoning yagona elektron arxivi" axborot tizimi orqali berilgan ma'lumot asosida fuqaroning identifikatsiyalovchi ID-kartasi, xorij-ga chiqish biometrik pasporti, milliy haydovchilik guvohnomasi va harbiy guvohnomasini qayta rasmiylashtirish bo'yicha kompozit davlat xizmati ko'rsatish tartibi yo'lga qo'yiladi.

Umuman olganda, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish bilan bog'liq davlat xizmatlarini ko'rsatishda

yuqorida nazarda tutilgan o'zgarishlar amalga oshirilsa, bir qator ijobiy holatlar kuzatiladi.

Birinchidan, davlat xizmatlari ko'rsatish sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkoniyati oshirilib, "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan ulug'vor g'oya amaliyotda yana bir bor o'z tasdig'ini topadi.

Ikkinchidan, fuqarolarning idorama-idora sarson bo'lib yurishiga, qog'oz hujjatlar aylanmasiga, asossiz moliyaviy xarajatlarga, fuqarolar ko'p vaqt yo'qotishi va navbatlar yuzaga

kelishiga hamda ayrim hollarda korruptsiya va byurokratiya holatlariga barham beriladi.

Uchinchidan, jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat xizmatlari ko'rsatish ko'lamini oshiriladi. Aholining masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi. Shuningdek, bu borada barcha uchun teng sharoitlarni yaratish orqali inklyuziv muhit shakllantiriladi.

Samira SAID-GAZIYEVA,

Bektemir tuman

FHDYo bo'limi mudirasi v.b.

AKSIYA DOIRASIDA

XAVFSIZLIGIMIZ O'Z QO'LMIZDA



Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar xodimlari hamda Yong'in qutqaruv qismi xizmatchilari tomonidan haftaning har chorshanba kuni "Favqulodda vaziyatlar va Yong'inlar profilaktika kuni" o'tkazilmoqda.

Shu kunlari Favqulodda vaziyatlar xodimlari hamda Yong'in qutqaruv qismi xizmatchilari tomonidan mahalla fuqarolar yig'inlarida, davlat tashkilotlari va muassasalarida, aholi xonadonlarida, shuningdek, doimiy ravishda qurilish ishlari olib borilayotgan, qayta rekonstruksiya qilinayotgan va kapital ta'mirlanayotgan obyektlarda profilaktik suhbatlar o'tkazilib kelinmoqda.

Qurilish obyektlarida ishlayotgan quruvchilar, muhandis, ishchi va xizmatchilar bilan birgalikda obyektni ko'zdan kechirish jarayonida ularga doimiy ravishda yong'in xavfsizligi qoidalariga va boshqa amaldagi me'yoriy hujjatlarga amal qilishlari, tasdiqlangan loyiha hujjatlariga asosan qurilish ishlari olib borishlari, qurilayotgan bino va inshootlarning ichki hududida yonuvchi modda va materiallarni saqlamasliklari, vaqtinchalik turar joylarda nosoz va qo'lbo'la gaz ballonlari va elektr pechlar, nosoz elektr simlaridan foydalanmaslik kabi qoidalar xususida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Shu bilan birga, suhbat jarayonida qurilish obyektda yong'inlar yoki boshqa favqulodda vaziyatlar ro'y berganida qanday harakat qilish tartibi, fuqarolarni xavfli hududdan xavfsiz hududga evakuatsiya qilish, shaxsiy va ish hujjatlarini xavfsiz joyga olib chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berilmoqda.

Oybek RAHMATOV,

Lotfullo ERKINOV,

Andijon viloyati FVB xodimlari

E'OLONLAR

"Notariat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 152-moddasi va Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 23-fevraldagi 2-son yig'ilish qaroriga asosan Qarshi shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Axrorov Behzod Muminovichga (litsenziya KS 0031, 2020-yil 27-aprel) viloyat adliya boshqarmasi tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini 2 oy muddatga, ya'ni 2023-yilning 1-mart kundan 2023-yilning 1-may kuniga qadar hamda Qarshi shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xolmanova Dilnora Rustamovna (litsenziya KS 0029, 2020-yil 27-aprel) viloyat adliya boshqarmasi tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini 1 oy muddatga, ya'ni 2023-yilning 1-mart kundan 2023-yilning 1-aprel kuniga qadar to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Arnasoy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Do'stmuradov Ismoil Muxtarovich vafot etganligi sababli Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 14-martdagi 46-um-son buyrug'i bilan unga Jizzax viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2020-yil 21-aprel kuni berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi GZ №0019-sonli litsenziyaning amal qilishi va notariuslik maqomi tugatildi.

**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



ISSN 2010-7497

**Bosh
muharrir**

Asliddin
ALIMARDOV

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov

Furqat Tojiyev

Sevara O'rinoysheva

Yorбек Iskandarov

Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi

Yorбек Iskandarov

Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyoyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida teridi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji — 3900
Buyurtma — 865

Topshirish vaqti — 19:00
Topshirildi — 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:

(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5